

TIJORAT BANKLARI VALYUTA OPERATSIYALARI VA ULARNING TASNIFLANISHI

Yusupov Aziz Shuhratovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini
rivojlantirishning ilmiy
asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot
markazi tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini tasniflash va takomillashtirish orqali bank faoliyatining samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Valyuta siyosati, xalqaro tajriba va milliy qonunchilik asosida bank risklarini boshqarish, resurslarni samarali taqsimlash hamda operatsion jarayonlarni avtomatlashtirish zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, raqobatbardosh valyuta xizmatlarini joriy etish va mijozlar ehtiyojiga mos strategik yondashuvlar ishlab chiqish bo‘yicha amaliy tavsiyalar taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banki, valyuta operatsiyalari, valyuta siyosati, bank strategiyasi, moliyaviy xavfsizlik, xalqaro hisob-kitoblar, bank risklari.

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы классификации и совершенствования валютных операций коммерческих банков с целью повышения эффективности банковской деятельности. Обоснована необходимость управления валютными рисками, рационального распределения ресурсов и автоматизации операционных процессов на основе валютной политики, международного опыта и национального законодательства. Также предложены практические рекомендации по внедрению конкурентоспособных валютных услуг и разработке стратегических подходов, соответствующих потребностям клиентов.

Ключевые слова: коммерческий банк, валютные операции, валютная политика, банковская стратегия, финансовая безопасность, международные расчёты, банковские риски.

Abstract

The article examines the classification and improvement of currency operations in commercial banks to enhance banking efficiency. It substantiates the need for risk management, effective resource allocation, and automation of operations based on currency policy, international experience, and national legislation. Practical recommendations are provided for introducing competitive foreign exchange services and developing strategic approaches tailored to customer needs.

Keywords: commercial bank, currency operations, currency policy, banking strategy, financial security, international settlements, banking risks.

KIRISH

Valyuta operatsiyalari asosan valyuta bozorlarida amalga oshiriladi. Valyuta bozorlari deganda milliy valyuta xorijiy valyuta xarid qilish yoki sotish yuz beradigan va bunda valyuta kurslari ularga boʻlgan talab va taklif natijasida yuzaga keladigan rasmiy valyuta-moliya bozorining eng yirik jaxon markazlari London, Nyu-York, Frankfurg Mayn va Tokio hisoblanadi. Bu shaharlarda koʻp sonli boʻlishlar tarmogʻiga va erkin naqd chet el valyutasiga ega juda yirik jaxon tijorat banklari faoliyat koʻrsatadi.

Tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini tashkil qilishning uslubiy masalalarini tadqiq qilish, shuningdek valyuta operatsiyalari mohiyatini belgilovchi asosiy iqtisodiy kategoriyalarning mohiyatini ochib berish, bank valyuta operatsiyalarini mamlakat tashqi iqtisodiy rivojiga xizmat qilishini taʼminlash uchun uslubiy asoslarini takomillashtirish masalalari bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi.

Bu borada Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-may kuni qabul qilingan PF-5992-son “2020–2025-yillarga moʻljallangan Oʻzbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmonida “bank sohasidagi hozirgi holat tahlili bank sektorida davlatning yuqori darajadagi aralashuvi, davlat ishtirokidagi banklarda menejment va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatining yetarli emasligi, iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikning past darajasi kabi bank sektorini iqtisodiy yangilanishlar va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirishga toʻsqinlik qilayotgan qator tizimli muammolar” mavjudligi koʻrsatib oʻtilgan [1].

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston-2030” strategiyasi toʻgʻrisida»gi farmoni qabul qilindi. Strategiyada Bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish, Bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini 40 milliard dollarga yetkazish, bank omonatlari hajmini 4 barobarga oshirish belgilangan. Bank xizmatlarini rivojlantirishda hamda kreditlash hajmini oshirishda bank resurslarini shakllantirish hamda valyuta operatsiyalarini takomillashtirish lozim. Mavjud muammolarni tizimli tarzda yechish uchun shu boradagi axborotlarni xalqaro standartlar va xorijiy amaliyotning ijobiy tajribalari darajasida shakllantirish zaruriyati mavzuni keng tadqiq etishni taqozo qilmoqda.

Milliy valyuta kursining isteʼmol tovarlarining bahosiga nisbatan yuzaga kelishi mumkin boʻlgan salbiy taʼsiriga barham berish markaziy banklarning valyuta siyosatida muhim oʻrin egallaydi. Buning boisi shundaki, inflyatsiya va valyuta kursi oʻrtasida uzviy aloqadorlik mavjud.

ADABIYOTLAR SHARHI

Oʻzbekistonlik bir qator iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlari natijalari koʻrsatdiki, respublikamiz tijorat banklarining valyuta zaxiralarini diversifikatsiya

darajasi juda past bo'lib, ular valyuta zaxiralarinng asosiy qismini (90 foizdan ortig'ini) AQSH dollaridagi zaxiralar tashkil etadi [2].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentyabr "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5177-sonli Farmonining qabul qilinishi amaldagi valyutani tartibga solish tizimini tubdan isloh qilish, valyuta siyosatini liberallashtirish, barcha tadbirkorlik subyektlariga tashqi savdo faoliyatini amalga oshirishda teng sharoitlar yaratishga qaratilgan edi[3]. 2017-yilda boshlangan bank sektorini isloh qilishning faol bosqichi valyuta bozorini liberallashtirishga ulkan hissa qo'shdi. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 22-oktyabrda "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi O'RQ-573-son Qonunning yangi tahriri qabul qilinishi munosabati bilan valyuta operatsiyalarining amaliyotdagi mavjud turlari qamrab olindi hamda qonunchilikdagi normalar maksimal darajada qisqartirildi[4].

Ko'plab olimlar valyuta operatsiyalarining mohiyati va mazmunini chuqur tahlil qilib, ushbu yo'nalishda muhim ilmiy ishlanmalarni amalga oshirganlar. Xususan, C. Nobes va R. Parker o'zlarining "Comparative International Accounting" asarida xalqaro moliyaviy hisob tizimlari o'rtasidagi farqlarni ko'rsatib o'tgan. Ularning tadqiqotlari tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini boshqarishdagi murakkabliklarni xalqaro standartlarga moslashtirish orqali hal qilish usullarini taklif qiladi [5]. Bank faoliyatidagi likvidlik masalalariga e'tibor qaratgan D. Diamond va P. Dybvig valyuta operatsiyalari tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynashini ta'kidlagan. Ular banklarning operatsiyalarni to'g'ri hisobotga olish orqali mijozlar ishonchini oshirish usullarini o'rgangan [6].

B. Needles va M. Powers tomonidan yozilgan "Financial and Managerial Accounting" asarini qayd etish mumkin [7]. Ushbu kitobda moliyaviy hisob tizimining xalqaro standartlari, xususan, valyuta operatsiyalari hisobi uchun IFRS qoidalarining qo'llanilishi chuqur yoritilgan. Ular valyuta kurslarining o'zgarishi bilan bog'liq risklarni kamaytirish uchun hisob tizimlarini modernizatsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Shunisi ahamiyatliki, milliy valyutaning qadrsizlanishi umumiy talabning qisqarishiga olib kelgan sharoitda Markaziy bank tomonidan restriksion pul-kredit siyosatining qo'llanilishi milliy iqtisodiyotning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, YAIMning o'sish sur'ati sekinlashadi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi davrida foiz stavkalari va inflyatsiya o'rtasida bevosita aloqadorlik mavjud emas, ammo Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi bilan tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalari o'rtasida sezilarli darajadagi aloqadorlik kuzatiladi.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy xujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlil qilingan. Mavzuni o'rganish davomida umumiqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda ba'zi bir iqtisodchilar suzib yuruvchi, ayrimlari qat'iy belgilangan valyuta kursini qo'llab-quvvatlashsa, ayrimlari oltin standart tizimiga qaytishga da'vat qilishadi. Oltin standartini mamlakatda qobul qilish uchun uchta shart bajarilishi lozim:

1. Milliy valyuta birligini oltindagi qiymatini belgilash;
2. Ichki pul massasi va o'z oltin rezervi orasidagi muvozanatni ta'minlash;
3. Oltinning erkin eksporti va importiga cheklanishlar kiritmaslik.

Agar har bir mamlakat milliy pul birligi qiymatini oltinda belgilasa, bunda turli milliy valyutalar orsidagi nisbat qat'iy belgilangan munosabatda bo'ladi. Oltin standarti tizimida barqaror valyuta kurslari xalqaro savdoga ta'sir etuvchi valyuta xavf xatarlarini kamaytirib tashqi savdo hajmini oshishiga olib keladi. Shuningdek to'lov balansi defitsitlari va aktivlarini avtomatik ravishda tekislaydi.

1-jadval

Milliy va xalqaro valyuta tizimi elementlari¹

№	Milliy valyuta tizimi	Xalqaro valyuta tizimi
1	Milliy valyuta	Rezerv valyutalar, xalqaro hisobraqam valyuta birliklari
2	Milliy valyutaning almashinuv shartlari	Valyutalarning o'zaro almashinish shartlari
3	Milliy valyuta pariteti	Valyuta paritetining unifitsirlangan rejimi
4	Milliy valyuta kursi rejimi	Valyuta kursi rejimlarining tartibi
5	Valyutaviy cheklashlarning mavjudligi, valyuta nazorati	Valyutaviy cheklovlarning davlatlararo tartibga solinishi
6	Mamlakatning xalqaro valyuta likvidligini milliy tartibga solinishi	Xalqaro valyuta likvidligini davlatlararo tartibga solinishi
7	Xalqaro kredit mablag'lardan foydalanish tartibi	Xalqaro kredit mablag'lardan foydalanish qoidalarining unifikatsiyasi
8	Mamlakatning xalqaro hisob-kitoblari tartibi	Xalqaro hisob-kitob asosiy shakllarining unifikatsiyasi
9	Milliy valyuta va oltin bozorlarining rejimi	Jahon valyuta bozori va oltin bozorlarining rejimi
10	Mamlakat valyuta munosabatlarini boshqaruvchi va tartibga soluvchi milliy tashkilotlar	Davlatlararo valyuta munosabatlarini amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar

Milliy va xalqaro valyuta tizimi orasidagi bog'lanish tashqi iqtisodiy faoliyatga xizmat ko'rsatuvchi milliy banklar faoliyatida hamda valyutani tartibga solishdagi xalqaro kelishuvlarda va yetakchi mamlakatlarning valyuta siyosatida namoyondir. Bu bog'lanish ularning o'xshashligini ifodalaydi. Chunki, ularning vazifalari, faoliyat va tartibga solish shart-sharoitlari, usullari, mamlakat va dunyo xo'jaligiga ta'siri turlichadir. Milliy va xalqaro valyuta tizimi orasidagi bog'lanish va farqlanishlarni ularning elementlarida ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

Yangi xalqaro valyuta tizimini esa mamlakatlardagi inflyatsiya o'sish suratlari bixillashtirish, to'lov balanslarini barqarorlashtirish hamda eng asosiysi markaziy banklar tomonidan mustaqil ravishda ichki pul siyosatini yuritishga olib keldi. Valyuta

¹ Muallif ishlanmasi

kursini erkin suzib yuruvchi rejimida o‘rnatilishi rivojlangan mamlakatlar valyutasini barqarorligini ta’minlasa, rivojlanayotgan va o‘tish davridagi mamlakatlar valyutasini turlicha o‘zgartirib iqtisodga ta’sirini o‘tkazish imkoniyatini yaratadi.

Xalqaro hisob-kitoblar – xorijiy valyutalardagi talab va majburiyatlarni amalga oshirish va tartibga solish tizimi bo‘lib, turli mamlakatlarning xuquqiy va jismoniy shaxslari o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar munosabati bilan yuzaga keladi. Xalqaro hisobkitob munosabatlari, bir tomondan, to‘lovlarni amalga oshirish tartibi va shartlarini o‘z ichiga olsa, ikkinchi tomondan, tijorat banklarining ularni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan kundalik faoliyatini oladi.

Iqtisodiyotning muhim va ajralmas tuzilmalaridan biri hisoblanuvchi banklar tizimi va xalqaro munosabatlar doimo o‘zoro bog‘liq shaklda rivojlanib kelgan. Shu bilan birga, banklar xalqaro munosabatlarda hisob-kitoblarni amalga oshirish, xo‘jalik subyektlarini kreditlash, xalqaro kapitallarni qayta taqsimlashda vositachi sifatida ishtirok etish, tashqi munosabatlarda qatnashuvchi subyektlarga boshqa turli xizmatlar ko‘rsatish orqali mehnat unumdorligini hamda ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga amalda yordam ko‘rsatadilar.

Xalqaro tijorat banklari xalqaro miqyosida keng tarqalgan va rivojlangan filial tarmoqlariga va banklararo vakillik hisob varaqlariga ega bo‘lib, bu ikki omil, pirovard natijada, ularning XIM tizimidagi yuqori darajadagi mavqeini ta’minlashning birlamchi zaruriy sharti hisoblanadi.

Tijorat banklarining xalqaro vakillik munosabatlari geografik yo‘nalishi, operatsiya turlari va munosabatlarning hususiyatlariga ko‘ra farqlanadi hamda uning tasniflanishi 1-jadvalda keltirilgan

2-jadval


Tijorat banklarining xalqaro vakillik munosabatlarining tasniflanishi¹

Tasnifi	Xususiyatlari
Funksional ko‘rinishda	Valyuta almashinuvi: banklar valyutalarni belgilangan kurs bo‘yicha almashtiradilar. Valyutani sotish va sotib olish: mijozlardan valyuta qabul qilish va ularga valyuta berish. Xalqaro pul o‘tkazmalari: bank orqali xorijiy mamlakatlarga pul ulash.
Mijozlarga ko‘ra	Korporativ mijozlar uchun: keng ko‘lamli operatsiyalar, masalan, eksport-import operatsiyalari doirasida. Shaxsiy mijozlar uchun: faqat shaxsiy ehtiyojlarni qondirish uchun amalga oshiriladigan operatsiyalar
Valyuta turiga ko‘ra	Asosiy valyutalar bilan operatsiyalar: AQSH dollari, yevro, funt sterling kabi asosiy valyutalar. Ikkinchi darajali valyutalar bilan operatsiyalar: nominal yoki kamroq ishlatiluvchi valyutalar

O‘zbekistonga 2024-yilda kelib tushgan transchegaraviy pul o‘tkazmalari hajmida 2023-yilga nisbatan Buyuk Britaniyadan 83 foizga, Janubiy Koreyadan 56

¹ Muallif ishlanmasi

foizga, AQSHdan 35 foizga hamda Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridan 32 foizga o‘shirish kuzatilgan.



1-rasm. O‘zbekistonga 2023-2024-yillarda kelib tushgan pul o‘tkazmalari hajmi¹, mln AQSH dollar

Keltirilgan 1-rasm ma’lumotlariga ko‘ra, ushbu davrda jismoniy shaxslarga kelib tushgan mablag‘larning 8,2 mlrd AQSH dollari an’anaviy xalqaro pul o‘tkazma tizimlari orqali (2023-yilga nisbatan o‘shirish 14 foiz), 5,9 mlrd AQSH dollari xorijdan jismoniy shaxslarning bank kartalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri (P2P) o‘tkazmalari orqali (o‘shirish 51 foiz) hamda 774 mln AQSH dollari bank o‘tkazmasi (SWIFT) orqali (o‘shirish 2,1 barobar) amalga oshirilgan. Xorijdan jismoniy shaxslarning bank kartalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri (P2P) o‘tkazmalar tezkorligi, qulayligi va nisbatan arzonligi hisobiga ommalashib bormoqda. Birgina 2024-yilda P2P (onlayn) tranzaksiyalar soni qariyb 71 milliontaga yetgan bo‘lsa (2023-yilga nisbatan o‘shirish 47 foiz), o‘tkazmalar hajmining kelib tushgan jami mablag‘lar hajmidagi ulushi 40 foizgacha ko‘paygan (2023-yilda 34 foiz). Shuningdek, 2024-yilda O‘zbekistondan chet elga yuborilgan pul o‘tkazmalari hajmi 2,8 mlrd AQSH dollarni (2023-yilga nisbatan o‘shirish 19 foiz) tashkil qilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qiladigan bo‘lsak, tijorat banklari valyuta operatsiyalari iqtisodiy faoliyatning muhim qismidir va ular jahon iqtisodiyotining globalashtirilishi jarayonida muhim rol o‘ynaydi hamda zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi valyuta operatsiyalarini avtomatlashtirish va tezlashtirish imkoniyatlarini yaratmoqda. Banklar blokcheyn texnologiyasi, kriptovalyutalar va elektron hisob-kitob tizimlarini joriy etish orqali yangi xizmatlarni taklif etishlari lozim.

¹ <https://cbu.uz/> sayti ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Tijorat banklari o'z mijozlariga raqobatbardosh shartlarda valyuta operatsiyalarini taklif eta oladigan bo'lsa, ularning mijoz bazasini kengaytirish imkoniyati paydo bo'ladi. Shu sababli, tijorat banklari valyuta operatsiyalarida yuqori samaradorlikka erishish uchun zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, riskini boshqarish strategiyasini takomillashtirish va moslashuvchan xizmatlarni taklif etish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/4811025>
2. Bobakulov T.I. O'zbekiston Respublikasida milliy valyuta kursining barqarorligini ta'minlash borasidagi muammolar va ularni hal qilish yo'llari. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent: BMA, 2008. – 33 b
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentyabrdagi PF-5177-son "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. <https://www.lex.uz/acts/3326421>
4. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 22-oktyabrda O'RQ-573-son "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi Qonunning yangi tahriri.
5. Nobes, C., & Parker, R. (2020). Comparative International Accounting. Pearson Education Limited.
6. Diamond, D., & Dybvig, P. (1983). Bank Runs, Deposit Insurance, and Liquidity. *Journal of Political Economy*, 91(3), 401-419.
7. Needles, B. E., & Powers, M. (2007). Financial and Managerial Accounting. Houghton Mifflin Company.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, may, 5-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710. ГОСТ 7.56-2002** " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**